

## INSON PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANISHIDA AJDODLAR MEROSINING O'RNI

**Bozorboyeva Roksana Farrux qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inson psixologiyasining shakllanish jarayonida ajdodlar merosining ahamiyati va uning o'ziga xos jihatlari atroflicha tahlil qiligan. Unda tarixiy, madaniy va genetik omillarning inson ongiga ta'siri ko'rib chiqiladi hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy kodlarning psixologik rivojlanishga qo'shgan hissasi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Inson psixologiyasi, ajdodlar merosi, madaniyat, genetik omillar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ong tushunchasi, madaniy kod tushunchasi.

Qadimdan xalqimizga xos muhim bir fazilat – ayol zotiga e'tibor, izzat-ikrom, mehr-muhabbat ko'rsatib kelingan. Shu e'tibor negizida oilada sog'lom insonning dunyoga kelishi, sog'lom tarbiya ta'sirida ulg'ayib, kamol topishida ayol-onaning o'rni beqiyos deb e'tirof etilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, nasl sog'lomligi, farzand tarbiyasi, avlod barkamolligi va ushbu faoliyatda ayol zotining, onaning o'rni, vazifasi hamda mas'uliyati islomning diniy-falsafiy asoslari va manbalarida keng yoritilgan.

Har ikki holatda ota-bobolarimiz oilani barpo etishga bosh-qosh bo'lar ekanlar, albatta, nasl-nasab, tana va ruh sog'lomligiga jiddiy e'tibor berganlar. Shubhasiz, ushbu omillar qurilajak oilaning sog'lomligi va mustahkamligini ta'minlovchi muhim sabab bo'lishi bilan bir vaqtda, ijtimoiy muhit sog'lomligini, jamiyat barqarorligi va mamlakat mustahkamligini ta'minlovchi muhim omil hamdir. Ya'ni oilalarimizda sog'lom ma'naviy muhitni tashkil qilish, er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlar, qo'shniq munosabatlarining o'zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo'lishiga erishish – bu yurtimizdagi tinchlik-osoyshtalik va ahillikni yanada mustahkamlashning eng muhim sharti ekanini doimo esda tutmog'imiz lozim[3].

Inson psixologiyasining shakllanishi ko'p omillarning birgalikdagi ta'siri natijasi shakllanadi va yuzaga chiqadi. Bunda ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy va ma'naviy meros alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada ajdodlar merosining psixologik rivojlanishdagi o'rni tarixiy va zamonaviy kontekstda o'rganiladi.

Ajdodlar merosi va uning inson psixologiyaga ta'siri juda katta bo'lib, unda madaniy meros: urf-odatlar, milliy qadriyatlar va an'analarning insonning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyatlidir. Masalan, oilaviy an'analarning davomiyligi, mehnatga munosabat, va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi jamiyat tomonidan uzatiladi.

Genetik omillarga to'xtaladigan bo'lsak, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, genetik meros insonning temperament va xarakteriga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi[1].

Madaniy kod va arxetiplar esa Karl Gustav Jungning nazariyasiga ko'ra, arxetiplar orqali avloddan-avlodga ma'lum bir ma'naviy va ruhiy tajriba o'tadi. Bu psixologik o'sishga bevosita ta'sir qiladi. Madaniy va ijtimoiy qadriyatlarning o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, ajdodlarning madaniy merosi o'z ichiga xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, diniy qarashlar va tarixiy tajribalarni oladi. Ushbu qadriyatlar shaxs ongiga ijtimoiy muhit orqali singdiriladi. Masalan, xalq ertaklari va dostonlari yoshlarga mardlik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o'rgatadi[2].

Shuningdek, ajdodlarning ma'naviy merosi insonning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar va madaniyat odamni o'z jamiyatiga moslashtirib, uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

O'zbek xalqi qadimdan o'z oilasi, Vatani, uning qadr-qimmati va daxlsizligini ta'minlash, uning g'ururi uchun kurashib kelgan. Aynan shu oila orqali tarbiya va merosni uzatish mumkinligi hozirgi davrning dolzarb muammolardan biridir. Ajdodlardan o'tgan merosning eng samarali uzatish usuli bu oiladir. Oila yosh avlodga ajdodlarning ma'naviy qadriyatlarini o'rgatib, ularning psixologik rivojlanishiga yo'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalar oilada halollik, o'zaro hurmat va hamkorlik kabi tamoyillarni o'rganadilar.

Oilaviy qadriyatlar insonning butun hayot davomida unga rahbarlik qiladi va jamiyatdagi munosabatlar tizimini shakllantiradi. Shu sababli, ajdodlardan qolgan tarbiyaviy tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifadir[4].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ajdodlar merosi inson psixologiyasining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Bu meros orqali avlodlar o'rtasida bog'liqlik saqlanadi va insoniyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi davom etadi. Kelajakda ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarurdir. Sog'lom avlod – bu millat, yurt kelajagi, uning mustahkam poydevorini esa barkamol, yetuk, ma'nan sog'lom farzandlargina qura oladi. Zero, jannatmakon yurtga barkamol, yetuk insonlargina yarashadi. Farzandlari sog'lom yurt esa, taraqqiy etadi, yuksaladi va hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaydi. Ajdodlarimiz ezgu maqsadlariga sodiq qolib, bugun biz sog'lom avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qarataramiz, shu barobarida Vatanimiz obodligi va ozodligi, turmushimiz erkinligi va farovonligi sari qat'iyat bilan qadam tashlaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Luriya A. R. Madaniyat va ruhiyat. Toshkent.1981. 29-b.
2. Murodov A. O'zbek xalqi psixologiyasi. Toshkent. 2010. 18-19-b.
- 3.Nizamova F. Farzand tarbiyasida ajdodlar merosining o'rni. "Islom tafakkuri" jurnali, 2021-yil 4-son. 75-77-b.
- 4.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Madaniyat va urf-odatlar bo'limi. Toshkent. 2022. 82-b.